

**ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYASIDA
LOIHALASH METODI IMKONIYATLARI VA UNI AMALGA
OSHIRISH BOSQICHLARI**

Uralova Dilfuza Shernafasovna

*Samarqand viloyati Ishtixon tumani 50-maktabi
Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada bugungi kun uchun dolzarb bo`lgan va pedagogika sohasida keng tarqalayotgan metodlardan biri bo`lgan loiha qilish haqida so`z borgan bo`lib, o`qituvchilarning mavzuni o`qitishdagi kasb mahoratini oshirishga qaratilgan.

Kalit so`zlar: rivojlanish, loiha, o`qitish usullari, iqtisodiy tarbiya, g`oyalar, axborot oqimi, o`qitish usullari.

Bugungi kunda zamonaziy ta`limda loihalash metodi ta'lim texnologiyasining muhim bo'g'iniga aylanmoqda. Bu metod ta'lim oluvchilarga hayot tarziga moslashish, mustaqil, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi. Loihalash (lot. rojectus - olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz), nomini o'zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, proekt ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini oolib beradi. Loihalash metodi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo'lib, o`qituvchining o`quvchilar bilan individual ishslash imkonini beradi. O`qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, o`quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo'l oolib beriladi. Loihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo'llanilishi va uni hal etish muammolari ko'rib chiqiladi. Loihalash metodi ta'lim oluvchilarni quyidagilarga:

- fanning turli sohalaridagi bilimlarni bir butun holga keltirib, muammolarni topish va yechish, axborotlar oqimida mo'ljal olish;
- faoliyatni tanlash huquqidan foydalanib, turli taxmin, g'oyalami ilgari surish, tadqiqot o'tkazish, tahlil qilish iqtisodiy va biologik jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlash;
- o'z faoliyati natijasiga mas'ul bo'lish, mustaqil qaror qabul qilish, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini qidirish, xatolarni topish va to'g'rakash;
- turli yechim. takliflarning natijalarini ilmiy taxmin qilish (prognozlash);
- jamoada ishslash, turli nuqtayi nazar, fikrlaming muhokamasida qatnashishga rag'batlantiradi.

Loihalash metodini qo'llab, dars o'tish jarayonida o'quvchi, talabalarning vazifasi: -iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq, ijtimoiy ahamiyatga ega ishni bajarish, mahsulot ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, iqtisodiy va boshqa muammoni belgilangan vaqt davomida yechish yoki yechish uchun takliflar ishlab chiqish. O'qituvchining vazifasi: – o'quvchi, talabalami mustaqil ijodiy faoliyatlarini unumli bo'lishi uchun sharoit yaratish. Bu metodni tabiiy fanlami o'rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, o`quvchilar biznes-reja tuzishni, turli tanlovlarda qatnashish uchun loihalar ishlab chiqishni o'rganadilar. Nazariy va amaliy mashg'ulotlami qanday tashkil etishning texnologik xaritasini ishlab chiqish, ya'ni darsni qanday o'tkazishni mufassal rejasini ishlab chiqishni, umuman olganda, o'z faoliyatlarini rejalshtirishni o'rganadilar.

Loihalash metodini qo'llash uchun birinchi navbatda loyihalash obektini aniqlaymiz. Qanday masala, muammo mavjud-ki, uni yechib loihaning natijasini qanday bo'lishini belgilaymiz.

1. Bu o'tilayotgan mavzu bo'yicha qo'yilgan savol yoki yechimini kutayotgan dolzarb masala bo'lishi mumkin. Loiha talabalarning o'z xohishlari, qiziqishlariga ko'ra tanlagan ilmiy izlanishlari bo'lishi mumkin yoki o'qituvchi taklif qilishi mumkin. Har ikkala holda ham o`quvchilar zarur axborotlarni to'plashlari, ularni tahlil qilishlari zarur. Tahlil asosida qaror qabul qilib, loyiha ishlab chiqishdan maqsad qo'yiladi va qanday natijaga erishilishi belgilanadi.

2. Maqsadni aniqlagach, loihaning mazmunini belgilaydi.

3. Reja asosida amalga oshirish uchun vazifalar belgilanadi, ya'ni faoliyat rejasi ishlab chiqiladi. Loihaning umumiyligi tavsifi oydinlashadi. Aniq faoliyatga asos yaratiladi. Loihani amalga oshirish uchun tuzilgan reja aniq bo'lishi, haddan tashqari murakkab bo'lmasligi kerak. Umumiyligi rejadan tashqari haftalik va oylik rejalar tuziladiki, uning asosida o`quvchi bajaradigan ishlarni yanada oydinlashtiradi.

4. Loiha qatnashchilari belgilanadi. Loiha qatnashchilari o'z qiziqishlari, fikr doiralari bilan bir- birlariga yaqin, yordam beruvchi o'quvchi, talabalar bo'lib, ularni loyihada qo'yilgan maqsad birlashtiradi. Ularni yoniga keyinchalik boshqa qatnashchilar ham qo'shilishi mumkin. Lekin qatnashchilar haddan tashqari ko'payib ketishi salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun loyihada har bir qatnashuvchining bajaradigan vazifasi aniq yozib qo'yiladi.

5. Loihani amalga oshirish muddatlari belgilanadi. Agarda u bosqichlarga bo'linsa, uni ham muddatlari bilan ko'rsatiladi.

6. Loihalash va uni amalga oshirishning bosqichlari:

Nº	Mezonlar	Eng yuqori ball
1	Tanlangan muommoning dolzarbliji	
2	Muammoni o`rganilganlik darajasi	

3	Maqsad va vazifalari aniq, tushunarli tarzda bayon qilinishi	
4	Tanlangan muammoning qisqacha mazmunining yoritilishi	
5	Bajariladigan ishning qisqacha mazmunining yoritilishi	
6	Ko`rgazmali, namoyish materiallaridan foydalanish	
7	Loihani amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar, ularning manbalarining ko`rsatilishi va asoslanishi	
8	Rasmiylashtirish sifati	

Loihalash metodi asosida dars jarayonini tashkil etishda o'quv guruhi ichida ishchi guruhlari tuziladi. Ular o'zlashtirish darajalariga qarab uch ishchi guruhga bo'linadi. Bunda kuchli ishchi guruhlari mustaqil shug'ullanganda, o'qituvchi o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan mashg'ulot o'tkazishi uchun ko'proq vaqt ajratiladi. Ishchi guruhlari ishtirokchilarining o'zlashtirish darajasi taxminan teng bo'lganida ta'limda yuqori natijaga erishiladi. Bunday guruhlami ta'lim oluvchilarning o'zları tuzgani ma'qul, chunki ular o'zlarining qaysi guruhga mos ekanliklarini juda yaxshi bilishadi.

Yakuniy so`z o`rnida shuni aytish kerakki, kichik guruhlarda har bir o'quvchi yakka tartibda loiha ishini bajargani uchun individual amaliy usuldan ham foydalanadi. Bu esa o'quvchilarda samaradorlik darahasini yanada oshirish uchun xizmat qiladi. Individual usulning laboratoriya usulidan farqi, o'quvchilar o'z faoliyati davomida olgan bilimlaridan foydalanib, amaliy vazifani hal etishga harakat qiladi. Shu sababdan loyhalash usuli va ishi bugungi kunda barcha sohani qo'llanib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov M. O'quv materialini didaktik loyihalash tizimi. «Pedagogik mahorat», 2002 yil, 3-son,
2. Mahmudov M. Ta`lim natijasini loyihalash. «Pedagogik mahorat», 2003 yil,
3. Tolipov O`Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiylarasi.–T.:Fan, 2006.
4. Sayidahmedov N. Ta`limda harakatlant iruvchi kuch. «Ma'rifat», 1998 yil.